

KALLA SUYAGINING POSTTRAVMATIK DEFEKTLARI PLASTIKASINING KLINIK-NEVROLOGIK SIMPTOMLAR VA ZAMONAVIY USULLARINI SAMARADORLIGINI O'RGANISH.

Nusratullayev R.N., Xolmurodov O.X., Aliev M.A.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Neyroxirurgiya kafedrası

Dolzarbli. Kranioserebral travma (KST) dolzarb muammo bo'lib, tinchlik davrida barcha shikastlanishlarning 35-40% tashkil qiladi [3,4,6].

Posttravmatik suyak defektni kranioplastika qilish va bosh suyagining butunligini tiklash muammosi haqida barcha neyroxirurg mutaxasislari bir fikrga kelishmagan va izlanishni davom etishmoqda. Kranioplastika maqsadida qo'llanadigan transplantatlar va fiksatorlarning xilma xilligi shundan darak beradiki hozirgi vaqtda barcha talablarga javob beradigan yagona va optimal kranioplastika usuli mavjud emas [1,2,5].


Har qanday transplantat va fiksasiya tizimi uchun maqbul xususiyatlar - materialning biologik inertligi, fiksajning ishonchliligi, transplantat va bosh suyagi o'rtasida nomutanosiblik yo'qligi, foydalanish qulayligi, transplantatning o'rtacha qiymati, neyrovizual, neyrofizyologik yoki boshqa tadqiqot usullari vaqtida artefaktlarning yo'qligi. Bugungi kunda transplantlarni tanlashning ma'lum usullaridan hech biri bu talablarga etarlicha javob bermaydi[7,10,11].

Bosh chanogi defektlari ayniqsa katta suyak defektlari miya tuzilmalarining organik va funksional buzilishlarini, miyada qon aylanishini va likvorodinamikaning buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, tashqaridan himoyalangan miyaning shikastlanishi xavfi sezilarli darajada oshadi[1,3,4,9].

Maqsad. Bosh miya quttisi posttravmatik suyak defekti plastikasining turli usullaridan foydalanishning klinik samaradorligini baholash.

Materiallar va usullar:


Miya quttisi turli lokalizatsiyadagi suyak defektlari bo'lgan 60 nafar bemorlarning 2018 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda Samarqand davlat tibbiyot instituti 1-sonli klinikasi neyroxirurgiya bo'limi statsionar davolanishidagi davolash natijalari tahlil qilindi. 2018 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda tahlil qilinayotgan bemorlar orasida 45 nafar erkak (75,0%) va 15 (25,0%) ayollar tashkil qildi. 60 nafar bemorlar anamnezida kranioserebral (KST) travma mavjud bo'lib, shundan 48,5% da bosh suyak gumbazi defekti fronto-parietal, 42,9% da fronto-temporal, 56,4% da-temporo-parietal va 8,6% bemorda fronto-parieto-temporal sohalaridaborligi aniqlanib ajratildi (diagramma №1). Bosh suyak gumbazi defekti kattaligi bo'yicha bemorlar 3 guruhga bo'linadi: kichik defekt- 10 sm² gacha - 24 (40%) bemorda, o'rtacha defekt-30 sm² gacha 32 (53,3%) bemorda va katta defekt-60 sm² gacha 4 (6,7%) bemorda.



Peshona-tepa, peshona-chakka, chakka-tepa va peshona-tepa-chakka

Klinikada operativ davolanga 60 ta bemordan 75,5% ga titan plastinkasi yordamida VEER simon avtokranioplastika qilindini, 24,5% bemorga titan setka yordamida allokranioplastika amalga oshirildi (diagramma №2). Barcha bemorlar zamonaviy instrumental tadqiqot usullari (rentgenografiya, multispiral kompyuter tomografiya miya quttsi 3D rekonstruksiya bilan va magnit rezonans tomografiya) kliniko-nevrologik, shu jumladan, keng qamrovli ko'rikdan o'tkazildi.

Diagramma №2



2017-2021 yil uchun kranioplastikani amalga oshirgan bemorlar guruhi

Natijalar va munozaralar:

25% bemorlarni kranioplastika qilish amaliyoti travmadan keyingi 1 yil ichidagi davrda amalga oshirildi, 75% bemor 1 yildan so'ng kranioplastika amaliyoti bajarilgan. Bosh suyagi trepanasion sindromlaridan sefalgiya (98,4%), meteolabillik (88,4%), mehnat faoliyatining susayishi (47%), xotira pasayishi (72%), intellektual

funksiyasi buzilishi (38%), miya to'qimalarining trepanasion defektga bo'rtib turishi (72%), kosmetik muammolari tufayli ruhiyatning o'zgarishi va miya jarohatlanish hissi borligi sababli doimiy qo'rquv (88%), epileptik xurujlari (36,8%) bilan bog'liq nevrologik o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. O'choqli simptomlari gemiparez, yuz nervlarining markaziy parezi, amovroz, giposmiya, anosmiya va miopiya shaklida kuzatildi. Bemorlarga kuzatilgan o'choqli simptomlardan gemiparez 17,5% da, yuz nervining markaziy parezi o'ngdan 15,4%, chapdan 12,4%, ambliopiya 12,4%, anosmiya 8,6%, giposmiya 5,6% va amavroz 5% hollarda kuzatildi.

Birinchi va ikkinchi guruhlarda jarrohlik amaliyoti terining chandiqlarini kesish, yopishgan yumshoq to'qimani miya qattiq pardasidan ajratish bilan boshlanib, suyak defekti qirralari skletizasiya qilindi. Titan implantini modellashtirish, suyak defekti shakliga qarab amalga oshirildi. Transplantat suyak qalinligiga qarab, 4 dan 6 mm gacha bo'lgan vintlar yordamida amalga oshirildi. Ushbu bosqichning davomiyligi o'rtacha 15-20 daqiqa davom etdi.

Barcha bemorlarda (100%) opirasiyadan keyingi jarohat birlamchi bitdi. Teri nekrozi, jarohatning yiringlashi, miya qon aylanishining buzilishi, intrakranial gematomalar va transplantatning siljishi kabi asoratlar qayd etilmadi. Barcha bemorlarda o'rnatilgan implantlar mustahkam, harakatsiz edi.


Barcha hollarda qoniqarli kosmetik natijaga erishildi. Bemorlar klinikadan chiqarish vaqtida transplantatsiya sohasida ob'ektiv og'riq yo'qligi, postoperasion chandiq yumshoq, og'riqsiz, terining rangi o'zgarmagan, shish yo'qligi, bosh suyagining simmetriyasi saqlanib qolaganligi kuzatildi.

Kontrol tekshirilganda 58 (96,7%) bemorlarda og'riq sindromi kamaydi. Barcha holatlarda yaxshi kosmetik natijaga erishildi. Palpatsiya paytida transplantat va suyak to'qimasi o'rtasida tafovut sezilmadi, barcha hollarda simmetriya saqlanib qoldi.

Rasm 1. (Operatsiyadan keyin) chap peshona-tepa-chakka sohasida allokranioplastika titan o'rnatilganidan keying holat Bemor B.

Rasm 2. intraoperatsion rasm.





Rasm 3,4. MSKT 3D rekonstruksiya OKX.

Natijalar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, titandan tayyorlangan implantlardan foydalanish murakkab bosh suyagi defektlarini bartaraf etish vazifasini optimallashtiradi, yumshoq to'qima shikastlanishi va operatsiya davomiyligini kamaytiradi, yaxshi funksional va kosmetik natijalar beradi.

Titan plastinkalari yaxshi modellashiriladi, suyaklarga oson va tez o'rnatiladi, teri orqali palpatsiya qilinmaydi. Operatsiya davomiyligini 25-35 daqiqa qisqartiradi.

Shunday qilib, titan plastinkasi yordamida VEER simon kranioplastika, operatsiyalarning davomiyligini pasaytiradi, operatsiyadan keyingi asoratlarni kamaytiradi va bosh suyagining defektlarida rekonstruktiv jarrohlikda tanlash usuli bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. КИМ А. А., ИНДИАМИНОВ С. И., ШОЙИМОВ Ш. У. СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОВРЕЖДЕНИЙ У ДЕТЕЙ-ПЕШЕХОДОВ ПРИ АВТОМОБИЛЬНЫХ ТРАВМАХ //Т [a_XW [i [S US S_S^[üe YfcS^ – С. 215.
2. Xolboyevich B. F., Indiaminovich I. S. THE ROLE OF DESIGN FEATURES OF UZBEK NATIONAL KNIVES-“PICHAK” IN THE TASK OF FORENSIC

MEDICAL EXAMINATION //European science review. – 2017. – №. 7-8. – С. 25-26.

3. BOYMANOV F. X., INDIAMINOV S. I. THE ROLE OF DESIGN FEATURES OF UZBEK NATIONAL KNIVES-“PICHAK” IN THE TASK OF FORENSIC MEDICAL EXAMINATION //EUROPEAN SCIENCE REVIEW. – С. 25-26.

4. Бойманов Ф. Х. СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКАЯ ОЦЕНКА МЕХАНИЧЕСКИХ ПОВРЕЖДЕНИЙ НОСА //Молодежь и медицинская наука в XXI веке. – 2014. – С. 111-112.

5. Rasulova M. R., Indiaminov S. I. Судебно-медицинская характеристика повреждений органов слуха //Здобутки клінічної і експериментальної медицини. – №. 2. – С. 145-148.

6. Бойманов Ф. Х., Гамидов С. Ш. ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НИЖНИХ КОНЕЧНОСТЕЙ У ПОСТРАДАВШИХ ПЕШЕХОДОВ ПРИ АВТОМОБИЛЬНОЙ ТРАВМЫ //The 11th International scientific and practical conference “Topical issues of the development of modern science”(July 1-3, 2020) Publishing House “ACCENT”, Sofia, Bulgaria. 2020. 256 p. – 2020. – С. 74.

7. Indiaminov S. I., Abdumuminov K. N., Boymanov F. K. Characteristics of injuries in cyclists injured when other vehicles collide with the side of the body of moving bicycles //Russian Journal of Forensic Medicine. – 2022. – Т. 8. – №. 4. – С. 57-65.

8. Бойманов Ф. Х., Кушбаков А. М., Азимов К. И. Особенности Строения Узбекских Национальных Ножей-Пичак //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 532-535.

9. Эшбеков М. А., Бойманов Ф. Х. ИММУНОКОМПЛЕКСНЫЕ МЕХАНИЗМЫ В ТЕЧЕНИИ ХРОНИЧЕСКОГО ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТА //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 847-851.

10. Шамсиев А. М. и др. МАЛОИНВАЗИВНЫЙ МЕТОД ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ ЭХИНОКОККОЗ ЛЕГКИХ //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 79-81.

11. Хамдамов Б. З., Бойманов Ф. Х., Кулиев Ш. Э. ПОВРЕЖДЕНИЙ СВЯЗОЧНЫХ СТРУКТУР СУСТАВОВ //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 59-64.

12. Хамдамов Б. З., Бойманов Ф. Х., Кулиев Ш. Э. ПОВРЕЖДЕНИЙ СВЯЗОЧНЫХ СТРУКТУР СУСТАВОВ //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 59-64.

13. Напасов И. З., Хамдамов Б. З., Бойманов Ф. Х. ОСОБЕННОСТИ ПОВРЕЖДЕНИЙ СВЯЗОЧНЫХ СТРУКТУР СУСТАВОВ //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 36-42.

14. Erkinovna D. A. et al. КЛАССИФИКАЦИИ МЕХАНИЧЕСКИХ ТРАВМ ОРГАНА ЗРЕНИЯ //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 8. – №. 1.

15. Eshbekov M. A., Boymanov F. X. THE SIGNIFICANCE OF IMMUNOCOMPLEX MECHANISMS DURING CHRONIC GLOMERULONEPHRITIS //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 74-77.
16. Indiaminovich I. S. et al. FEATURES OF DAMAGES OF THE SPINE AND SPINAL STRUCTURES IN VARIOUS MECHANICAL INJURIES //JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE. – 2023. – Т. 8. – №. 2.
17. Boymanov F. K., Kushbakov A. M., Rashidov F. F. Morphological features of stab-cut wounds of the skin of the trunk and limbs inflicted by kitchen knives //Reports of Morphology. – 2023. – Т. 29. – №. 2. – С. 32-37.
18. Indiaminov S. I., Boymanov F. H. Морфологія колото-різаних ран серця, завданих національними узбецькими ножами //Шпитальна хірургія. Журнал імені ЛЯ Ковальчука. – №. 1. – С. 93-96.
19. Бойманов Ф. Х., Индиаминов С. И., Мардонов Т. М. ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ГРАФИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ МОРФОЛОГИИ КОЛОТО-РЕЗАНЫХ РАН //КОЛОНКА РЕДАКТОРА.
20. Индиаминов С., Якубов М., Бойманов Ф. Изменения структур головного мозга при алкогольной интоксикации (современное состояние проблемы) //Журнал вестник врача. – 2013. – Т. 1. – №. 1. – С. 66-70.
21. Индиаминов С. И., Бойманов Ф. Х. МОРФОЛОГИЯ КОЛОТО-РЕЗАНЫХ РАН КОЖИ И РАЗРЕЗОВ ОДЕЖДЫ, ПРИЧИНЁННЫХ НАЦИОНАЛЬНЫМИ УЗБЕКСКИМИ НОЖАМИ. – 2017.
22. Індіамінов С. І., Бойманов Ф. Х. Морфологія колоторезаных ран сердца, нанесенных национальными узбекскими ножами //Шпитальна хірургія. Журнал імені ЛЯ Ковальчука. – 2018. – №. 1. – С. 93-96.
23. Шопулатов И. Б., Бойманов Ф. Х. КЛАССИФИКАЦИЯ ТРАВМАТИЧЕСКИХ ПОВРЕЖДЕНИЙ КИСТЕЙ //Новый день в медицине. – 2020. – №. 2. – С. 269-271.
24. Индиаминов С., Бойманов Ф., Тожиев У. КАК ПРИЧИНА ВНЕЗАПНОЙ СМЕРТИ //Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 186-187.
25. Рамих Э. А. Повреждения грудного и поясничного отделов позвоночника //Хирургия позвоночника. – 2008. – №. 2. – С. 94-114.
26. Бойманов Ф. Х., Шопулатов И. Б. ЧЕРЕПНО-МОЗГОВАЯ ТРАВМА У ДЕТЕЙ-ПЕШЕХОДОВ ПРИ АВТОМОБИЛЬНОЙ ТРАВМЕ //The 11th International scientific and practical conference “Topical issues of the development of modern science”(July 1-3, 2020) Publishing House “ACCENT”, Sofia, Bulgaria. 2020. 256 p. – 2020. – С. 71.
27. Boymanov F. K., Kushbakov A. M. Morphological features of heart damages caused by national Uzbek knives //Reports of Morphology. – 2023. – Т. 29. – №. 1. – С. 46-49.
28. Индиаминов С. И., Бойманов Ф. Х. О строении узбекских национальных ножей-пичаков //Наука, образование и культура. – 2017. – №. 7 (22). – С. 74-77.

29. Indiaminov S. I., Boymanov F. K. O stroyenii uzbekskikh natsionalnykh nozhey-pichakov [About a structure of the Uzbek national knives-spikes] //Nauka, obrazovanie i kultura–Science, Education and Culture. – 2017. – Т. 7. – №. 22. – С. 74-77.
30. Бойманов Ф., Индияминов С., Мардонов Т. Морфологические особенности колото-резаных повреждений небиологических тканей, причинённых национальными узбекскими ножами //Журнал вестник врача. – 2018. – Т. 1. – №. 1. – С. 36-38.
31. Индияминов С., Гамидов С., Бойманов Ф. При их столкновении с движущимися современными легковыми автомобилями //Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 41-42.
32. Boymanov F. H., Indiaminov S. I. Морфология и метрические свойства кожных ран, причиненных национальными узбекскими ножами //Буковинський медичний вісник. – 2020. – Т. 24. – №. 1 (93). – С. 35-39.
33. Бойманов Ф., Индияминов С. Особенности морфологии колото-резаных ран кожи туловища и конечностей //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2017. – №. 3 (96). – С. 141-143.
34. Бойманов Ф. Х., Индияминов С. И., Мардонов Т. М. Различия морфологии и морфометрических показателей колото-резаных ран в зависимости от их локализации на теле //Буковинський медичний вісник. – 2018. – №. 22, № 2. – С. 10-14.
35. Индияминов С. И., Бойманов Ф. Х. Современные судебно-медицинские аспекты колото-резаных повреждений //Судебно-медицинская экспертиза. – 2018. – Т. 61. – №. 2. – С. 3-7.
36. Индияминов С., Гамидов С., Бойманов Ф. При их столкновении с движущимися современными легковыми автомобилями //Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 41-42.
37. Индияминов С. И., Гамидов С. Ш., Бойманов Ф. Х. Особенности формирования повреждений у пешеходов при их столкновении с движущимися современными легковыми автомобилями //Вестник врача. Самарканд. – 2020. – Т. 2. – №. 94. – С. 36-40.